



ADABIYOT FANINI O'QITISHNING INTERAKTIV USULLARI

Niyozova Zumrad,
Hamidova Feruza
Boynazarov Doniyor,
NavDU akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyot darslarida interaktiv texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, o'quvchilarga ta'lim materiallarini taqdim etishning zamonaviy usullari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri haqida gap boradi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarga ta'lim materiallarini taqdim etishning zamonaviy usullari bilan bevosita bog'liq ekanligi yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Interaktiv metodlar, virtual ta'lim, pedagogik shart-sharoit, audio, matn, grafika, animatsiya, texnologiya, kreativlik, interaktiv o'qitish, video.*

Hozirgi kunda adabiyot darslarida o'quvchilarni darsga jalb etish va uning qiziqitira olish, esida tez saqlanib qolishi uchun turli xil metodlardan foydalanish juda yaxshi samara bermoqda. Dars jarayonida turli metodlardan foydalanish o'qituvchidan o'z ustida ishlashni, o'quvchidan fikrini bemalol bayon eta olishga o'rgatadi. Ma'lumki hozirgi kunda interfaol metodlarning 100 dan ortiq turi mavjud, ulardan ko'pi sinovdan samarali o'tgan.

Adabiyot darsida eng ko'p qo'llaniladigan metod o'qituvchining bayoni metodidir. Bayon metodida o'qituvchi o'tayotgan yangi mavzusini og'zaki bayon qiladi. O'tayotgan mavzusi oldindan o'quvchilarga qisman tanish bo'lgan bo'lsa notanish qismlari haqida ko'proq ma'lumot beriladi. Yangi o'tilayotgan mavzu oldingi mavzularga bog'lab o'tilsa dars samarasi yana ham qiziqarli bo'ladi. Suhbat o'quvchilar nutqini oshiradi. So'zlashuv madaniyatiga o'rgatadi. O'tilganlarni mustahkamlash uchun test metodidan ham foydalaniladi. O'quvchilarga o'zlari test tuzish metodini qo'llansa yil davomida yig'ilgan testlarni o'quvchilarning o'zlariga berish orqali mavzularni mustahkamlash mumkin. Dars yanada qiziqarli va esda qolarli bo'ladi.

Interfaol metodlar har bir o'quvchi tomonidan o'z qobiliyatlariga qarab o'zlashtiriladi. Bunday metodlar jamoaviy yoki yakka tartibda ishlashga o'rgatadi. Interfaol metodlar ta'limning asosiy metodlari hisoblanadi: baxs munozaralar o'tkazish o'quv materiallaridan foydalanish fikrini erkin qo'rqqmasdan bayon eta olish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi o'quv jarayonini yangilashga va samarali tashkil etishgakatta turtki bo'lmoqda. Shu bilan birga, o'qitish metodlari va yondashuvlarining zamonaviylashuvi, ayniqsa, adabiyot darslarini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarga nafaqat o'zlashtirishning



yanada qiziqarli va interfaol shakllarini taklif etadi, balki ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Virtual borliqda gavdalanitirilgan mana shunday muammoli holatlar lateral- kreativ fikrlashni rivojlantiradigan metodlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Adabiyotni o'quv fani va san'at turi sifatida o'qitish mazmunini takomillashtirish bo'yicha tajribalarimiz o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishda lateral fikrlash metodlaridan foydalanish, mantiqiy fikrlash orqali tadqiqiy muammo yechimini topishga individual yondashuvga zamin yaratadi.

Adabiyot darslarida virtual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

O'quvchilarni faol va mustaqil o'qishga jalb qilish uchun virtual ta'lim texnologiyalarining samarali ishlatilishi o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi. Darslar, onlayn resurslar va videolar orqali o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishiga, izlanishlar o'tkazishiga yordam beradi.

1. Interaktiv o'qitish metodlari: Virtual platformalar yordamida o'qitish interaktiv o'quv metodlarini qo'llash imkonini beradi. Bu metodlar o'quvchilarning darsga faol jalb bo'lishini ta'minlaydi, masalan, forumlar, onlayn muhokamalar va interaktiv testlar orqali o'qish samaradorligini oshiradi.

2. Ta'lim materiallarini vizual va audio formatlarda taqdim etish: Zamonaviy texnologiyalar orqali darslarni vizual va audio materiallar bilan boyitish, o'quvchilarga matn, video va animatsiyalar orqali ma'lumotlarni tushunishni osonlashtiradi. Bu o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va mavzuni yaxshiroq o'zlashtirishlariga yordam beradi.

3. Shaxsiylashtirilgan o'qitish: Virtual ta'lim platformalarida o'quvchilar o'zlarining bilim darajasini belgilash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa ta'lim jarayonini har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi.

4. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida samarali aloqa o'rnatish: Virtual ta'lim texnologiyalari o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqani yaxshilaydi. O'quvchilar onlayn tarzda o'z savollarini bera olishadi va o'qituvchilar ularga tezda javob bera olishadi. Bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

5. Texnologiyalarni joriy etish va o'qituvchilarni tayyorlash: O'qituvchilar virtual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun zamonaviy pedagogic ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Shuning uchun o'qituvchilarni doimiy ravishda yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga moslashtirish zarur.

6. Ta'limning sifatini oshirish: Virtual ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi, o'quvchilarga kerakli materiallarni taqdim etish va o'rganish jarayonini diversifikatsiya qilish orqali ta'limning sifatini oshirish imkoniyatini yaratadi. Shu tarzda, virtual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim jarayonining yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va interaktiv bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilaydi va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.





Adabiyot darslarida virtual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari texnik ta'minotlarni ham o'z ichiga oladi.

Fikringni to'ldir.

Bu metod o'quvchilarni yanada ko'proq o'qishga undaydi. O'qituvchi darsga kirib o'quvchilar bilan salomlashgandan keyin turli rangli qog'ozlardan tayyorlangan Ven diagramasidan foydalangan holda diagrammaning o'rta qismiga o'tilgan darsga doir birorta so'z yozadi o'quvchilar diagrammaning ikkita tarafiga shu mavzuga mos ma'lumotlar yozishi kerak bo'ladi. Shu metod orqali o'tilgan darslarni mustahkamlash mumkin. Bunda o'qituvchi o'tgan mavzuni o'quvchilar yozgan javoblariga qarab baholaydi. Metod orqali o'quvchilar ko'proq o'qishga erkin fikrlashga o'rganadi.

Qadamma qadam .

Bu metod orqali o'quvchilardan 6 nafari doskaga chiqariladi. O'quvchilarga har biriga bittadan rang aytiladi o'qituvchi tomonidan tayyorlangan 6 xil rangdagi kubik tashlanadi qaysi rang tushsa ana shu rang egasiga savol beriladi savolga javob bergan o'quvchi oldinga bir qadam tashlaydi o'yin shu tariqa davom etaveradi. Marraga birinchi kelgan o'quvchi g'olib sanaladi. Bu metod o'quvchilarni butun o'tgan mavzularni takrorlab mustahkamlab olishiga yordam beradi. Mavzular har darsda takrorlanib savol javob ilinishi orqali o'quvchi bilimlari oshib ko'proq narsalar esda saqlanib boraveradi. Dars ham juda qiziqarli o'tadi . Metodlar va interfaol usullar orqali o'tilgan dars o'qituvchiga ham o'quvchiga ham juda ko'p foyda beradi . O'qituvchi darsga tayyorgarlik qilish jarayonida mavzuga moslab o'zi ham turli xil metodlar yaratishim mumkin bu o'qituvchining o'z ustida ishlashiga undaydi.

O'qituvchi bunday metod vainterfaol metodlar yaratib o'z kashfiyotlarini fanga yangilik sifatida kirgazishi mumkin. Fanga kiritilgan yangiliklari orqasidan o'qituvchi o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adabiyot fanida qo'llaniladigan metod va interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'qituvchini darsga tayyorgarlik qilib kelishga undaydi. O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatadi darsga qiziqish bilan etibor beradi o'tilganlarni yodida yaxshi saqlab qoladi. Metodlar o'quvchilarga bilim olishlari uchun juda qulay vosita hisoblanadi. Biz doim interfaol usullardan hamda metodlardan foydalanib o'tiladigan darslar samarali bo'lishini bilgan xolda darslarimizni metodlar qo'llagan holda o'taman. Bu biz va o'quvchilarimizga samarali foyda beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ulomova M. X, Sobirov N.K Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari. Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami) T2009
2. Bobomurodova A onatili va adabiyoyt darslarida o'yin topshiriqlardan foydalanish T. Musiqqa 2009

- 
3. Khan Academy — www.khanacademy.org
4. Google Classroom — classroom.google.com

